

JIZZAX VOHASI TOJIKLARINING AN'ANAVIY TURMUSH TARZI VA TURAR – JOYLAR VA ULAR BILAN BOG'LIQ XO'JALIK BINOLARINING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jizzax vohasida yashovchi tojiklarning an'anaviy turar-joylari, ular bilan bog'liq urf-odatlar, diniy qarashlar va etnomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Turar-joylarning shakllanishi va ularga berilgan ma'naviy mazmun xalq tafakkurining ifodasidir.

Kalit so'zlar: Jizzax vohasi, tojiklar, turar-joy, urf-odat, etnologiya, arxitektura.

ТРАДИЦИОННЫЙ ОБРАЗ ЖИЗНИ ТАДЖИКОВ ДЖИЗАКСКОГО ОАЗИСА И СВОЕОБРАЗИЕ ЖИЛЫХ И СВЯЗАННЫХ С НИМИ ХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПОСТРОЕК

Аннотация. В статье рассматриваются традиционные жилища таджикского населения Зеравшанской долины, связанные с ними обычаи, религиозные представления и этнокультурные особенности. Анализ подчеркивает важность материальной культуры как отражения мировоззрения народа.

Ключевые слова: Зеравшанская долина, таджики, жилище, обычаи, этнология, архитектура.

THE TRADITIONAL LIFESTYLE OF THE TAJIKS OF THE JIZZAKH OASIS AND THE PECULIARITY OF RESIDENTIAL AND ASSOCIATED FARM BUILDINGS

Annotation. This article analyzes the traditional dwellings of Tajiks in the Jizzakh oasis, along with their customs, religious beliefs, and ethnocultural identity. The development of such dwellings reflects the people's worldview and cultural heritage.

Keywords: Jizzakh oasis, Tajiks, housing, customs, ethnology, architecture.

Aholi turar – joylari va ular bilan bog'liq xo'jalik binolari moddiy madaniyatning muhim etnik komponentlaridan biridir. Uy – joylarning shakllanishi va yuksalishi ko'plab omillarga, xalqning turmush – tarzi, xo'jalik faoliyati turlari, aholining ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishiga, tabiiy – geografik muhitga bevosita bog'liq bo'ladi.

Yurtimizda uy-joy qurilishida har bir viloyat umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan turar – joylari, xo'jalik binolari tizimini yaratishi bilan birgalikda lokal viloyat aholisining xo'jaligi hom ashyolarning turlari, qurilish an'analari xususiyatlariga qarab ham turar – joylari majmuini yaratadilar.

An'anaviy turar joylar o'zida xalqning uzoq o'tmishi, milliy mentaliteti, oilaviy va ijtimoiymunosabatlari va ko'plab etnografik xususiyatlarini mujassam etadi. Bu esa turar-joylarning taraqqiyoti joyning tabiiy-geografik sharoiti, aholining etnik xususiyatlari, xo'jalik-turmush tartibining o'ziga xosligi, diniy tasavvurlari, urf-odati, rasm-rusmlari va boshqa ko'plab omillar bilan chambarchas bog'liq holda ro'y berishi bilan izohlanadi. SHu jihatdan, an'anaviy turar-joylarni etnologik tadqiqotning muhim obekti sifatida o'rganish mahalliy aholining etnomadaniy xususiyatlarini anglashga keng yo'l ochib beradi.

Ta'kidlash joizki, turar joylar mavzusi etnograf mutaxassislardan tashqari arxitektura, arxeologiya, san'atshunoslik kabi fan sohalari vakillarining ham qiziqishlari doirasida bo'lib kelgan. O'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Ustrushonaning markaziy, shimoliy, shimoliy-g'arbiy vohalarida ilk o'rta asrlarda bunyod etilgan qishloq makonlarining qurilish

usullariga, qolaversa eng avvalo iqtisodiy va madaniy hayoti tarixiga bir qator aniqliklar kiritildi. Bu ishlar Ustrushonaning markaziy vohalarida o'tgan asrning 60-70-yillarida amalga oshirilgan bo'lsa, O'zbekiston qismidagi vohalarda 1970-yillarda boshlanib hozirga qadar davom ettirilmoqda.

Uy - joy bilan bog'liq urf - odatlar etnografik yo'nalishda bajarilgan tadqiqotlarda moddiy madaniyat (turar joylar, kiyim - kechaklar, taqinchoqlar, oziq - ovqatlarjni, odatda grafik tasvirlar, rejalar, chizmalar, rasmlar, fotosuratlar yordamida batafsil ta'riflash, tavsiflash va ilmiy tahlil qilish o'ziga xos an'anaga aylangan. Urf - odatlarni etnografik yo'nalishda tadqiq etishdan ko'zlangan asosiy maqsad o'rganilayotgan ob'yektning xalq ijtimoiy turmush tarzi bilan aloqadorligini yoritib berishdan iborat. Chunki, an'anaviy urf - odatlar namunalari insoniyat mehnati va extiyoji asosida yaratilsa, lekin uning ongli tafakkuri natijasi o'laroq u yoki bu ko'rinishni oladi. Shubhasiz, bu o'rinda urf - odat namunalari aks etuvchi ramz, belgi, g'oya ko'rinishida ham e'tiborga loyiq bo'lib, bu bevosita u bilan bog'liq tasavvurlar, e'tiqodiy qarashlarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqachasiga etnologlar uchun urf-odat namunalari tasnifi emas, balki ularning inson bilan aloqadorligi qiziqarli xisoblanadi.

Biz tadqiq etayotgan Jizzax vohasi tojiklari nafaqat keng va obod vodiylar, shu bilan birga tog'lar va tog'l tegralarida ham yashaydi. Shuning uchun ham ularning uy- joylari ham turlicha ko'rinishda bo'lishi tabiiy hol. Mamlakatning boshqa hududlarida yashaydigan tojiklar bilan Nurota tog' tizmasi atrofidagi yalanglik hamda tog' etaklarida yashayotgan aholining uy-joylari bir-biridan ancha farq qiladi. Har bir xonadonda ichkari (darun) va tashqari (berun) mavjud bo'lgan, lekin benin bilan darunni bir-biridan ajratib turuvchi devorlar hozirda saqlanib qolmagan. Xonadonlarda asosiy xonalardan tashqari albatta, mehmonxona bo'lishi shart edi. Hovlining boshqa tarafidan qator turli xil xo'jalik binolari qurilgan. Xonaning shipga yaqin joyidan bitta yo' ikkita darcha ochiq panjara to'silgan yoki eshikli bo'lgan. Xonaga yorug'lik ana shu darchadan tushib turgan. Xonaga kiraverishda dahliz bo'lib, u yerga obrez ham qurilgan.

Obrezning og'zi taxta bilan to'silgan bo'lib, taxtalar orasidan ozgina tirqish qoldirilgan, chunki suv ana shu tirqishdan pastga oqib tushib ketgan.

Har qaysi xonada bir nechta katta va kichik taxmon hamda tokchalar mavjud bo'lgan. Katta taxmonga sandiq o'rnatiladi, ustiga ko'fa va yostiq taxtlab qo'yiladi. Tokchalarga turli-tuman idish-tovoq va ro'zg'or buyumlari joy lasht iiladi.

Imorat poydevorlari oralariga bo'yra to'shalgan, uy-joylar bir nechta qator katta-kichik toshlaridan quriladi. Bino poydevoriga qalin g'o'la yog'ochlar o'rnatib chiqiladi. Uyning devorlari har xil bo'lishi mumkin, lekin baland tog'li yerlarda odatda, sinch devorlar o'rnatiladi. Sinch oralari guvala va somon suvoq bilan suvab chiqiladi. Uyning devorlari har xil bo'lganligi uchun ayrim hollarda paxsa devorli uylar ham quriladi. Uyning oldiga ayvon qurilib, ba'zan ayvonning o'rta qismi nisbatan baland ko'rinishda bo'ladi.

Ko'p uylarda mo'ri va sandal bo'lib, ayniqsa, Mojrum va Uxum atroflarida sandal ixcham qilib quriladi. Aksariyat tojik oilalari - ayvon dolonli ikki xonali uy solishni yoqtiradi. Hovlining uyga tutash yerida supa qurilib, uyning devorlari paxsa bilan tiklanadi. Bu erda uylarning tomi qo'sh nishabli ko'rinishda qurilgan bo'lib, barcha uylarning poli tuproqdan iborat bo'ladi. Oyoq kiyimlarni yechish uchun eshik oldi nisbatan chuqurroq qilinadi.

Tog'lik tojiklar uylarini butunlay boshqacha usulda quradilar. Tog'li joydagi uylarning hovlilari bo'lmaydi. Uyning devorlari qalin va tomi ham ancha baquvat, og'ir qilib quriladi. Aks holda, qor ko'chkilari va qattiq shamol uchirib ketishi mumkin bo'lgan. Uyning poydevori baland bo'lib, og'ir toshlar terib chiqiladi, so'ngra tosh yoki paxsadan devor uriladi. Devorlarning osti keng, qalin va ust tarafiga qarab torayib boradi. Uyning usti shox-butalar bilan yopilib, qalin tuproq solinadi, so'ngra somon suvoq bilan suvab chiqiladi.

Ba'zi hududlarda uyning bitta xonasi ikkiga bo'linadi. Birinchi bo'lagini sathi bir oz baland qilib quriladi, ushbu bo'lakni ro'yi bola deb ataladi. Mazkur bo'lak o'tirib ovqatlanadigan, dam oladigan va yotadigan joy hisoblanadi. Ikkinchi past bo'lagiga o'choq mo'risi bilan omborxona va boshqa xo'jalik xonalari joylashadi. Tojiklar tomonidan qadinidan ardoqlanib kelinayotgan nafis hunar turlardan bin naqqoshlik va zargarlik hisoblanadi. Naqqoshlik san'afining xilma-xil turlari

rivojlanib kelgan. Ganch va yog'och o'ymakorligi, terrakot (kuydirilgan sarg'ish-qizil loylar) ishlash, xalq kashtachiligi keng tarqalgan amaliy san'at turlari edi. O'z o'rnida shuni qayd etish kerakki, tojik ayollari kashta tikish hunarini mukammal egallagan. Xususan, Samarqand va Buxoroda tojik kashtachilarining mahoratiga teng keladigani bo'lmagan. Buxoro amiri saroyida baxmalga zar tikish bilan mashhur bo'lgan bir guruh zargarlar ishlagan. Zarbof to'n va do'ppi tikishning xilma-xil usullari qo'llanilgan. So'zana, atlas va duxoba ko'rpa, har xil xalta, ko'ylak, belbog', salla hamda boshqa uy-ro'zg'or va marosim kiyimlari chiroyli, rang barang gul hamda kashtalar bilan bezatilgan. Kelinchaklar yuziga tutiladigan nafis parda - ro'yiband, shuningdek, uchburchak shakldagi guldor tumorchalar o'zining nafisligi va go'zalligi bilan ajralib turadi. Turli bino va imoratlarning ustuni, shipi hamda peshtoqlaridagi islomiy va girix naqshlar har qanday insonning e'tiborini o'ziga tortadi.

Voha tojiklarining uy-joy bilan bog'liq urf-odat va marosimlari ham o'ziga xoslik kasb etadi. Jizzax vohasi tojiklarida ham uy - joylarga o'ziga xos muqaddas dargoh sifatida qaralgan. Vohada yangi uyning joylashish o'rniga alohida e'tibor berilgan va turar joylarni doimo xosiyatsiz hisoblangan qabrston, ziyoratgoh va aziz avliyolar qabrlaridan uzoqroqda qurishga xarakat qilganlar. Bu esa o'z navbatida mazkur turar joyda istiqomat qiladigan oila hayotining muvaffaqiyatli o'tishida katta ahamiyat kasb etgan. Chunki aholi nazdida qabrston va ziyoratgohlar marhumlar ruhi to'planadigan joy hisoblangan. Chunonchi, mahalliy aholi biror - bir qabrston o'rniga yoki aziz avliyolar mozorlari atrofiga turar joy qurilsa "bezovta ruhlar" tufayli uy egalaridan kimgadir, ayniqsa, bolalarga tasodifan zarar yetishidan va oila a'zolari kasallanishidan hadiksiraganlar. Xalqona qarashlarga ko'ra, ruhlar ziyoni oila a'zolaridan birining xastalikka chalinishi yoki mazkur uyda yashovchilardan kimnidir biror - bir baxtsiz xodisaga duchor bo'lishi tarzida namoyon bo'lar ekan.

Dunyoning ko'plab xalqlari singari voha tojiklarining ham yangi uyga ko'chib kirish oldidan bajaradigan turfa xil rasm - rusumlari va urf - odatlari bo'lib, xalq tasavvurida ushbu oila a'zolarining kelgusida beziyon yashashlariga ko'mak berar ekan. O'z navbatida bunday xulosa yangi uyga ko'chib o'tishda va unda yashash davomida xona qismlari bilan bog'liq turli urf - odatlarining bajarilishiga sabab bo'lgan. Jumladan Forish tumani qishloqlarida yangi uyni qurishdan avval uy poydevorini ko'tarish ishlari boshlanishida ota - bobolar ruhiga bag'ishlab qo'y so'yib qurbonlik qilingan. Shundan keyin so'yilgan jonliq go'shtidan maxsus taom pishirilib, mahalla oqsoqollari va hasharchilarga tortilgan. Marosimda bobolar ruhiga tilovat qilingan, bolanayotgan ishni muvaffaqiyatli bo'lishi so'ralgan. Umuman olganda, dunyodagi ko'pgina xalqlarda uy - joylarni tiklash chog'ida jonliq so'yib qurbonlik qilish odati bo'lgan.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, eski uyni buzib yangisini solish o'ziga xos mas'uliyatli jarayon hisoblangan. Darxaqiqat, ko'plab xalqlar singari voxa o'zbeklarida ham eng qadimgi davrlardan boshlab olamdan o'tgan ota - bobolar, ajdodlar ruhi xurmat qilingan.

Jizzax vohasining tojiklari orasida uyning ayrim qismlari - bolar(to'sin), ustun, eshiklar o'matish jarayonida ramziy ma'nolarga ega bo'lgan va aynan mazkur qismlar bilan bog'liq qator urf - odatlarga amal qilingan. Jumladan, voha o'zbeklarida ham respublikamizning boshqa mintaqalarida bo'lgani singari, xona shiftiga qo'yiladigan to'sinlar soni doimo toq bo'lib, xona turi va hajmini belgilovchi o'lchov bo'lib kelgan. Xususan, 9 bolarli, 11 bolarli, 13 bolarli. Xalqona qarashlarga ko'ra, uy va mexmonxonalar deb nomlangan ayrim joylarda to'sinlarning juft bo'lmagani Allohga bag'ishlangan deyilsa, boshqalarida bittato'sin vazifasini xonadon erkagi bajaradi, deb tushunilgan.

Yangi qurilayotgan uy devorini ko'tarish, tom yopish bilan bog'liq, tarzda va ko'p ishchi kuchini talab etadigan ishlarda mahalla erkaklari ishtirokida maxsus hashar uyushtirilgan. Uy-joylar bilan bog'liq urf-odat va rasm - rusumlarning talay qismi uy tiklab bo'lganidan so'ng ham o'tkazilgan. Dastlab uyga ko'chib kirishda uy kirdi, uy ko'rdi marosimi o'tkazilgan.

Tojiklarda uyning turli joylari ayniqsa, ostonasi, o'chog'i eng muqaddas joylardan biri hisoblangan va u bilan bog'liq bir qator urf - odatlar xamda irimlar bajarilgan. Bu o'rinda, avvalo shuni xam ta'kidlash kerakki, xalqning kundalik turmush tarzida oston bilan bog'liq qator naqlar ham mavjud. Chunonchi "ostonada turmushga chiqmagan qiz o'tirsa, baxtsiz bo'ladi", "ostonada

turib bo'lmaydi, chunki biror - bir kishisidan ayrilgan inson ostonada turadi", "ostonada turib salomlashilmaydi, o'rtaq sovuqchilik tushadi" degan naqlar bugungi kungacha xalqimizda saqlanib kelmoqda va ular hozirda xam omma orasida o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Voha tojiklari orasida uy o'chog'i ostonasi bilan birga xonaning eng muqaddas joylaridan bo'lishi bilan birga oilaning baxti xam hisoblangan. O'zbeklar ham qadim davrlardan oilani uy o'chog'isiz tasavvur qilolmaganlar. Jizzax vohasida o'choq oilaning qut - barakasi imsoli bo'lib, usiz oilani ham tasavvur qilib bo'lmaydi.

Umuman olganda, uy - joy bilan bog'liq urf - odat va rasm-rusumlar asosan turar joylarni tiklash, ular ba'zi qismlariga alohida extirom bilan qarash hisoblansada, uning negizida oila a'zolari tinchligi, farovonligini ta'minlashga qaratilgan diniy mazmundagi tasavvur va tushunchalar mujassamlashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Qosimova M. Tojiklar: etnologik tahlil. – T.: Fan, 2004.
3. Sagdullaev A. O'zbekistonning moddiy madaniyati. – T.: Sharq, 2001.
4. Akramov K. Markaziy Osiyo xalqlari uy-joy arxitekturasini. – T.: Fan, 2010.
5. Jizzax viloyati tarixi. – Jizzax: 2018.
6. Normurodov A. Etnografik tadqiqot usullari. – Samarqand, 2006.
7. Berdiyev O. Turar joylar arxitekturasini va urf-odatlar. – Buxoro, 2012.